

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Solikhova Dildora

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-3226-5738

dildora9203571@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi tahlil qilinadi. Amaldagi me'yoriy-huquqiy baza, jumladan, "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonun (1996), "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun (2019), "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (2022–2026) hamda Prezident farmonlari asosida tadbirkorlik sohasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib beriladi. Xususiy tibbiyotning rivojlanishini cheklovchi muammolar ya'ni byurokratik jarayonlar, malakali kadrlar yetishmovchiligi va moliyaviy manbalar cheklanganligi ko'rsatib o'tilgan. Maqolada tadbirkorlik subyektlarini majburiy tibbiy sug'urta tizimiga integratsiya qilish, hududlarda yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligi ta'kidlanadi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, davlat siyosati va xususiy tashabbus uyg'unligi sog'liqni saqlash tizimining barqaror va raqobatbardosh bo'lishi uchun muhim ekanligi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, davlat-xususiy sheriklik, xususiy tibbiyot, tibbiy sug'urta, integratsiya, innovatsiyalar, byurokratik jarayonlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Солихова Дилдора

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируются особенности и перспективы развития предпринимательской деятельности в системе здравоохранения Республики Узбекистан. На основе действующей нормативно-правовой базы, в частности Закона «О здравоохранении» (1996), Закона «О государственно-частном партнёрстве» (2019), «Стратегии развития Нового Узбекистана» (2022-2026), а также президентских указов, определяются приоритетные направления совершенствования предпринимательского сектора. В качестве факторов, ограничивающих развитие частной медицины, выделяются бюрократические процедуры лицензирования, нехватка квалифицированных кадров и ограниченность финансовых ресурсов. В исследовании подчёркивается необходимость интеграции субъектов предпринимательства в систему обязательного медицинского страхования, поддержки новых инициатив в регионах и внедрения инновационных технологий. В заключение отмечается, что гармоничное сочетание государственной политики и частной инициативы является важнейшей основой устойчивости и конкурентоспособности системы здравоохранения.

Ключевые слова: предпринимательство, система здравоохранения, частная медицина, медицинское страхование, интеграция, инновации, бюрократические процедуры.

IMPROVING ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN THE HEALTHCARE SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Solikhova Dildora

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the characteristics and development prospects of entrepreneurial activity in the healthcare system of the Republic of Uzbekistan. Based on the current regulatory and legal framework, including the Law "On Healthcare" (1996), the Law "On Public-Private Partnership" (2019), the "New Uzbekistan Development Strategy" (2022–2026), as well as presidential decrees, the priority directions for improving the entrepreneurial sector are outlined. The study highlights the main challenges hindering the growth of private healthcare, such as bureaucratic procedures, a shortage of qualified personnel, and limited financial resources. It emphasizes the necessity of integrating entrepreneurial entities into the system of mandatory health insurance, supporting new initiatives in the regions, and introducing innovative technologies. In conclusion, it is argued that the synergy between state policy and private initiative plays a crucial role in ensuring the stability and competitiveness of the healthcare system.*

Keywords: *entrepreneurship, healthcare system, private medicine, health insurance, integration, innovation, bureaucratic procedures.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish davlat siyosatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Aholini sifatli tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash, umr davomiyligini uzaytirish va xizmatlarning hududlar bo'yicha teng taqsimlanishini ta'minlash uchun davlat tomonidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunday jarayonlarda xususiy tadbirkorlik faoliyatining o'rni tobora ortib bormoqda.

"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (2022–2026 yy.)da ta'kidlab o'tilganidek sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi tibbiyot muassasalari tashkil etish va xalqaro standartlarga mos tibbiy xizmatlar ko'rsatishni kengaytirish maqsad qilib qo'yilgan. Shuningdek, 2019 yilda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun xususiy sektorning tibbiyot sohasiga faol kirib kelishiga mustahkam huquqiy zamin yaratdi.

Bugungi kunda sog'liqni saqlashda xususiy sektorning faolligi bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, aholining o'sib borayotgan tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabi; ikkinchidan, davlat byudjeti mablag'larining cheklanganligi sababli xususiy investitsiyalarni jalb qilish zarurati; uchinchidan, texnologik yangiliklar va innovatsion yechimlarning tezkor kirib kelishi. Shu bilan birga, xususiy tibbiyotning rivojlanishida ayrim cheklovchi omillar, jumladan, litsenziyalashdagi byurokratik jarayonlar, malakali kadrlar yetishmovchiligi hamda moliyaviy resurslarning cheklanganligi mavjud.

Shunday qilib, sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki aholi salomatligini mustahkamlash va mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Kuchkarova (2021) tibbiy tashkilotlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish xususida olib borgan izlanishlarida litsenziyalash va akkreditatsiya jarayonlarini soddalashtirish va majburiy tibbiy sug'urtaning bosqichma-bosqich joriy etilishi xususiy tibbiyot o'sishini jadallashtirishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalasi eng dolzarb yo'nalishlardan biri ekanligini qayd etadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ham o'z hisobotlarida xususiy sektorning sog'liqni saqlash tizimida muhim o'rin tutishini ta'kidlab kelmoqda. Bundan tashqari majburiy tibbiy sug'urta tizimiga xususiy

muassasalarni integratsiya qilish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy vositasi sifatida ko'rilgan (WHO, 2022). "Exploring Challenges and Opportunities of PPPs in Health Care" (May 30, 2025) maqolasida PPP modelining past va o'rta darajadagi daromadli davlatlarda sog'liqni saqlash infratuzilmasi, shifoxonalar, tashxis xizmatlari va boshqalar PPP orqali rivojlanayotganligi va innovatsiyalar orqali sifatni oshirilayotganligi ta'kidlangan. Shuningdek, 2025 yil mart oyida e'lon qilingan xabarga ko'ra, O'zbekistonda Tashkent shahridagi beshta yirik tibbiyot markazini PPP asosida boshqarish uchun xalqaro tanlov o'tkazilishi rejalashtirilmoqda. Qolaversa, ADB yordami bilan shifoxonalarni modernizatsiya qilish, xizmat sifatini oshirish va xususiy sektorni jalb etishni rejalashtirayotgan "Healthcare System Development Concept 2019–2025" (May 22, 2025) bilan muvofiqlashtirilgan tashabbuslar ham mavjud.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025 yil fevral oyida taqdim etilgan tashabbuslar doirasida tibbiyot, ta'lim va madaniyat sohalarida PPP loyihalarini kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Xususan, tibbiyotda 5ta loyihaga \$1.2 mlrd ajratilishi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, 2025 yil avgust oyida e'lon qilingan iqtisodiy islohatlarda sog'liqni saqlash tadbirkorlari uchun tibbiy klasterlar tashkil etishda imtiyozli kreditlar, yer olish imkoniyatlari va soliq qulayliklari berilayotgani haqida ma'lumotlar mavjud. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kadrlar yetishmovchiligi, hududlar bo'yicha xizmatlarning nomutanosibligi va litsenziyalash jarayonlaridagi murakkablik kabi muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli, mahalliy va xorijiy tajribalarni uyg'unlashtirgan holda davlat siyosati va xususiy tashabbusni qo'shib olib borish soha rivojida muhim omil sifatida ko'riladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: Qiyosiy tahlil – O'zbekistonda xususiy tibbiyot muassasalarining o'sishi boshqa MDH davlatlari tajribasi bilan solishtirildi; Statistik tahlil – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2024) ma'lumotlari asosida xususiy klinikalar, diagnostika markazlari va farmatsevtika korxonalari soni o'rganildi; Normativ-huquqiy tahlil – sohada amal qilayotgan qonun va qarorlar tadqiq qilindi; SWOT-tahlili – sog'liqni saqlashdagi tadbirkorlik rivojlanishining kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xususiy sektor o'sishi: O'zbekiston Respublikasida 2016–2024 yillar davomida xususiy tibbiyot muassasalari soni keskin oshgani kuzatiladi.

1-jadval

O'zbekistonda xususiy tibbiyot muassasalari sonining o'sishi (2019–2024 yy.)

Yil	Xususiy klinikalar soni	Diagnostika markazlari	Farmatsevtika korxonalari
2019	450	120	80
2020	730	210	140
2021	1150	340	230
2022	1800	510	350
2023	1950	525	415
2024	2010	550	440

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2024 yil.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, so'nggi olti yilda xususiy klinikalar soni qariyb 4,5 barobarga, diagnostika markazlari esa 4,6 barobarga oshgan. Bu esa aholining xususiy tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabining yuqoriligini anglatadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xususiy tibbiy xizmat ko'rsatuvchi klinikalar va laboratoriyalar soni ortib bormoqda. Biroq ular asosan poytaxt va yirik shaharlarda joylashgan bo'lib, hududlar o'rtasida tibbiy xizmatlarga yetishuvchanlik tafovutlari saqlanib qolmoqda.

Asosiy muammolar quyidagilar:

litsenziya va akkreditatsiya jarayonlarining murakkabligi;

malakali tibbiyot kadrlarining yetishmasligi;

uzoq muddatli moliyaviy manbalarning cheklanganligi;

xususiy tibbiy muassasalarning majburiy tibbiy sug'urta tizimiga to'liq integratsiya qilinmaganligi.

DXSh asosida yangi loyihalar kopligi;

Majburiy tibbiy sug'urtaning joriy etilishi;

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash sohasida tadbirkorlik faoliyati quyidagi asosiy hujjatlarga tayanadi:

- "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonun (1996 y., №265-I) – sog'liqni saqlash tizimining huquqiy asoslarini belgilaydi (Qonun, 1996).

- "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun (2019 y., №ZRU-537) – davlat va xususiy sektor hamkorligi mexanizmlarini tartibga soladi (Qonun, 2019).

- "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" 2022–2026 yillar – sog'liqni saqlash sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va xususiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi (Strategiya, 2024).

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5590-son Farmoni (2018 y. 7 dekabr) – sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish va xususiy kapitalni jalb etish chora-tadbirlarini belgilaydi (Farmon, 2018).

- Vazirlar Mahkamasi qarorlari – farmatsevtika sanoatini rivojlantirish (masalan, PKM №455, 2017 y.), litsenziyalash va akkreditatsiya jarayonlarini tartibga solish.

Hozirgi kunda qator davlat dasturlari tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Tadbirkorlikni takomillashtirish yo'nalishlari:

1. Litsenziyalash va akkreditatsiya jarayonlarini soddalashtirish.


2. Davlat-xususiy sheriklik (**DXSh**) asosida tibbiy muassasalar qurish va boshqarish.

3. Xususiy tibbiy muassasalarni tibbiy sug'urta tizimiga integratsiya qilish.

4. Tibbiy menejment va biotexnologiya sohasida kadrlar tayyorlash.

5. Hududiy investitsiyalarni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari berish.

6. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish.



1-diagramma. Xususiy tibbiyot muassasalari sonining o'sishi (2021-2024 yy.)


Manba: Davlat statistika qo'mitasi, 2024 yil.

2-jadval

Xususiy tibbiyotning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2024 y.)

Hudud	Xususiy klinikalar soni	Ulushi (%)
Toshkent shahri	750	41.6
Toshkent viloyati	210	11.6
Samarqand	160	8.9
Farg'ona	130	7.2
Buxoro	110	6.1
Qoraqalpog'iston	80	4.4
Boshqa hududlar	360	20.2
Jami	1800	100

Manba: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi rasmiy ma'lumotlari, 2024 yil.



2-diagramma. Hududlar kesimida xususiy klinikalar ulushi (2024-y.)

Manba: SSV, 2024 yil.

Xulosa va takliflar.

Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, investitsiyalarni jalb etish va raqobatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Biroq, mavjud muammolarni bartaraf etish, xususiyy tibbiy sektorni sug'urta tizimiga to'g'ri integratsiya qilish hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlash zarur. Bunda davlat siyosati va xususiyy tashabbus uyg'unligi zamonaviy, innovatsion va raqobatbardosh sog'liqni saqlash tizimini shakllantirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar ilgari suriladi:

1. Xususiyy tibbiyot muassasalari sonining barqaror o'sishi sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlikning rivojlanayotganini ko'rsatmoqda.

2. Me'yoriy-huquqiy baza va litsenziyalashdagi ortiqcha tartib-taomillar qisqartirilishi zarur.

3. Kadrlar tayyorlash tizimini yangilash va xalqaro akkreditatsiyaga ega o'quv dasturlarini joriy etish lozim.

4. Tadbirkorlik subyektlarini majburiy tibbiy sug'urta tizimiga bosqichma-bosqich to'g'ri integratsiya qilish sog'liqni saqlashda moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

5. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va hududiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali sog'liqni saqlash xizmatlarining sifati va raqobatbardoshligi oshiriladi.

Shunday qilib, davlat siyosati va xususiyy tashabbus uyg'unligi O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini barqaror, innovatsion va xalqaro standartlarga mos tarzda rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Byulleten (2024) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi rasmiy axborot byulletenlari.

Farmon (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5590-son Farmoni, 07.12.2018 y.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024) "Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar" bo'limi. –Toshkent.

Qaror (2017) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-son qarori, 2017 y.

Qonun (1996) O'zbekiston Respublikasining "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonuni, №265-I, 29.08.1996 y. (o'zgartirishlar bilan).

Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiyy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, №ZRU-537, 10.05.2019 y.

Strategiya (2022) "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" 2022–2026 yu.

Кабалова Ксения Сергеевна, (2017) "Развитие предпринимательства в сфере здравоохранения" bakalavr diplom ishi avtoreferati.

Кучкарова Гузаль Равшанбековна. (2021) "ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕДИЦИНСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ" mavzusidagi maqola.

Мирварисова, Л., Нурмаматова, К., & Мирзарахимова, К. (2018). Медицинский менеджмент, оптимизация и совершенствование системы здравоохранения в Узбекистане. (4(73), 61–64. <https://inlibrary.uz/index.php/stomatologiya/article/view/2108>.

Постановление (2015) Президента Республики Узбекистан (22.04.2015) "О мерах по дальнейшему развитию частного сектора здравоохранения", <https://lex.uz/ru/docs/3150311?ONDATE=22.04.2025%2000>.